



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Namozova Ozoda Doniyor qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

ozodanamozova2002@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605700>

Kalit so'zlar: Strategik boshqaruv, sanoat korxonalari, energetika xo'jaligi, raqamli boshqaruv, innovatsion texnologiyalar, suniy intellekt, ishlab chiqarish samaradorligi, kadrlar malakasi, raqobatbardoshlik.

Bugungi kunda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, samarali ishlab chiqarish va yuqori sifatli mahsulot yetkazib berishni ta'minlash uchun strategik boshqaruv tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Strategik boshqaruv – bu korxonalar resurslarini maqsadga muvofiq taqsimlash, ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va uzoq muddatli qarorlar qabul qilish jarayoni. O'zbekiston sanoat korxonalari, xususan yengil sanoat, metallurgiya va kimyo sohalarida mavjud boshqaruv tizimlari ba'zan eskirgan va raqamlashtirilmagan bo'lib, bu ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati uchun to'siq bo'lmoqda.

O'zbekiston sanoat korxonalarida strategik boshqaruv tizimi ko'p hollarda qisman avtomatlashtirilgan yoki qo'lda boshqariladi. Masalan, rejalashtirish va nazorat jarayonlarida ERP va CRM tizimlarining yetishmasligi ishlab chiqarish jarayonini sustlashtiradi. Moddiy-texnik ta'minot yetarli darajada bo'lsa ham, xomashyo yetkazib berishdagi kechikishlar va eskirgan texnika yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga to'sqinlik qiladi.

O'zbekiston sanoat korxonalarida strategik boshqaruvning samaradorligini pasaytirayotgan asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Texnik jihozlarning eskirganligi. Ko'plab to'qimachilik va tikuv korxonalari hali ham 10-15 yil avvalgi uskunalar bilan ishlaymoqda. Bunday texnika samara pastligi va energiya tejamliligining yo'qligiga olib kelmoqda. Natijada mahsulot sifati pastroq, ishlab chiqarish tezligi esa sekin bo'ladi.

2. Energiya sarfining yuqoriligi. Yangi texnologiyalar energiyani tejaydi, lekin bizdagi ko'p zavodlarda hali ham eski elektr tizimlari ishlatiladi. Shu sababli ishlab chiqarish harajatlari oshadi, bu esa mahsulot narxiga salbiy ta'sir qiladi.

3. Kadrlar malakasining yetishmasligi. Texnik sohada ishlaydigan xodimlarning bir qismi zamonaviy dasturlar va uskunalar bilan ishlashni bilmaydi. Masalan, raqamli ishlab chiqarish yoki avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish ko'nikmalari kam.



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

4. Mahsulot sifati va dizayning yetarli darajada rivojlanmaganligi. Mahsulot sifati ko'p hollarda xomashyo va texnikaga bog'liq. Biroq dizayn va marketingga e'tibor kamligi sababli, o'zimizda ishlab chiqarilgan kiyimlar xalqaro bozorda "exclusive" darajada chiqmayapti.

5. Raqamlashtirish darajasining pastligi. Ko'plab ishlab chiqarish korxonalarida jarayonlar hali ham qog'ozda yuritiladi, tizimlar o'zaro bog'lanmagan. Bu esa vaqt yo'qotish, harajatlar chalkashligi va xatolar sonining ortishiga olib keladi.

6. Innovatsion yondashuvning sustligi. Korxonalarining yangi mahsulot turlari, mato aralashmalari yoki dizayn g'oyalari ustida ilmiy-tadqiqot ishlari deyarli yo'q. Ko'p hollarda xorijiy na'munalar nusxalanadi, lekin o'ziga xoslik yetishmaydi.

7. Bozor tahlilining yetishmasligi. Ko'p korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotning bozordagi haqiqiy talabini tahlil qilmaydi. Natijada ayrim mahsulotlar omborda qoladi, ayrimlar esa yetishmaydi. Bu esa foyda va samaradorlikni pasaytiradi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish, korxonalar samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun yechim qilib:

1. Ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash. Zamonaviy to'quv, bo'yoq va tikuv mashinalarini joriy etish orqali mahsulot sifati va ishlab chiqarish tezligini oshirish mumkin. Bunday texnikalar energiya tejankor ham bo'ladi.

2. Energiya tizimini optimallashtirish. Korxonalarda "aqlli" elektr hisoblagichlar, quyosh panellari va issiqlikni qayta ishlatish tizimlarini joriy etish mumkin. Bu ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va ekologik tozalikka hissa qo'shiladi.

3. Kadrlar malakasini oshirish. Korxonalar rahbarlari va texnik xodimlar uchun doimiy o'quv dasturlari yo'lga qo'yish, xodimlar ERP va CRM kabi boshqaruv tizimlari bilan ishlashni o'rganishlari zarur, chunki bu ishlab chiqarishni tezlashtiradi va nazoratni osonlashtiradi.

4. Innovatsion laboratoriyalar tashkil etish. Yengil sanoatda o'zimizga xos, yuqori sifatli mat ova dizaynlarni yaratish uchun texnologik markazlar tashkil etilishi zarur. Masalan, yangi tolalar aralashmasi yoki tabiiy bo'yoqlardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish.

5. Raqamli boshqaruv tizimlarini (ERP, CRM, SCM) joriy etish. ERP - korxonaning barcha resurslarini yagona tizimda birlashtiradi. CRM - mijozlar bilan aloqa va buyurtma jarayonini avtomatlashtiradi. SCM (supply chain management) - esa xomashyo ta'minotidan tortib, tayyor mahsulot yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonni nazorat qiladi. Bu tizimlarning barchasi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va inson xatosini kamaytiradi.

6. Mahsulotni brendlash va marketing strategiyasini kuchaytirish. Yengil sanoat mahsulotlarni faqat ichki bozorda emas, balki xalqaro darajada targ'ib qilish kerak. Buning uchun milliy dizayn elementlarini o'zida mujassam etgan, sifatli, estetik brend yaratish muhim. Shu orqali O'zbekiston matolari "exclusive" darajada tanila boshlaydi.

1-jadval

Quyidagi jadval takliflar bilan ularning kutilgan natijalarini ko'rsatadi:

Kamchilik	Takliflar	Kutilgan natija
Eskirgan texnika	Zamonaviy uskunalar sotib olish	Ishlan chiqarish samaradorligini oshirish
Kadrlar yetishmovchiligi	Trening va malaka oshirish	Qaror qabul qilish tezligi va sifat oshadi
Energiya muammosi	Energiya tejamkor tizimlar	Xarajat kamayadi, samara oshadi
Strategik boshqaruv sustligi	ERP/CRM va Ai tizimlarini joriy etish	Raqamli boshqaruv, samaradorlik va nazorat kuchayadi

Xulosa

Strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali O'zbekiston sanoat korxonalarini samaradorligini oshirishi, mahsulot sifatini yaxshilashi va resurslardan samarali foydalanishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, malakali kadrlar va innovatsion yechimlarni joriy etish korxonalarini raqobatbardosh qiladi va uzoq muddatli rivojlanishga hissa qo'shadi. Shu yo'l bilan, O'zbekiston sanoat sektori raqamli va innovatsion boshqaruv asosida barqaror o'sish yo'lini tanlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Harvard Business School Press.
2. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
3. Johnson, G., Scholes, K., & Whittington, R. (2017). Exploring Strategy: Text and Cases. Pearson.
4. Heizer, J., Render, B., & Munson, C. (2020). Operations Management: Sustainability and Supply Chain Management. Pearson.



5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi, Sanoat ko‘rsatkichlari, 2023.
6. Karimov, T. (2021). O‘zbekiston sanoat korxonalarida strategik boshqaruv tizimi tahlili. TDIU, Tashkent.
7. Osterwalder, A., & Pigneur, Y. (2010). Business Model Generation: A Handbook for Visionaries, Game Changers, and Challengers. Wiley.
8. Davenport, T. H., & Harris, J. G. (2007). Competing on Analytics: The New Science of Winning. Harvard Business School Press.
9. ISO 9001:2015. Quality Management Systems — Requirements. International Organization for Standardization.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). O‘zbekiston yengil sanoat rivojlanish strategiyasi 2030.

